

NIMA UCHUN AYOLLAR SIYOSAT VA GENDER TENGLIGINING BIR QISMI BO'LSHI KERAK?

Muslima To'ychiyeva

Andijon Davlat chet tillari instituti 1-kurs talabasi

Ilmiy maslahatchi: Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi

Anotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida ayollar haq-huquqlarini himoya qilish va uni jamiyat hayotida tutgan rolini oshirish yuritilgan. Bundan tashqari ayollarga nisbatan diskriminatsiya, tahqirlash kabi masalasida fikr muammolar asosiy o'ringa qo'yilgan.

Kalit so'zlar: diskriminatsiya, gender, xavfsizlik, konvensiya.

Abstract: The article focuses on the protection of women's right in the Republic of Uzbekistan and its role in society. In addition, issues such as discrimination, humiliation and against women are given priority.

Keywords: discrimination, gender, security, convention.

Абстракт: В статистика рассматривается вопрос защиты прав женщин и повышения их роли в обществе в Республике Узбекистан. Кроме того, приоритетное внимание уделяется таким проблемам, как дискриминация, унижение и изнасилование женщин.

Ключевые слова: дискриминация, гендер, безопасность, конвенция.

Kirish: Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirish nihoyatda muhim tamoyildir. Ayollar va qizlarga qarshi barcha turdagi kamsitishlarni yo'q qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan muhim, balki boshqa sohalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi kuchli omillardan biridir.

Dunyo rivojining hozirgi davrida inson taraqqiyoti, uning huquq va erkinliklari, ijtimoiy adolat va inson xavfsizligini ta'minlash borasidagi jarayonlar uchun ayollar va erkaklarning jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi tengligini amalda ta'minlash masalalari ustuvor vazifalarning biriga aylanmoqda. Shu maqsadda nafaqat republikamizda balki butun dunyoda ushbu masala aktual bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Erkak va ayollar o'rtasida teng huquq va teng imkoniyatlarni ta'minlash masalalari quyidagi asosiy xalqaro hujatlarda o'z aksini topgan, bular: Aholishunoslik va rivojlanish bo'yicha Qohira konferensiyasi (1994), Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha Pekin konferensiyasi (1995) va Inson manzilgohlari bo'yicha Istambul konferensiyasi (1996).

BMT ga a'zo davlatlar uchun ayollar va erkaklar tengligini ta'minlashga doir milliy majburiyatlarni to'liq bajarish Ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishish va BMT tamoyillarini qo'llab-quvvatlash.

Ayollar ba erkaklar huquqlarini tengligi mamlakatimizning asosiy qonuni-O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan, uning 18-moddasida qayd etilganidek, "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega. Dunyoda yuz berayotgan jarayonlar iqtisodiy rivojlanish siyosati gender jihatdan neytral bo'lishi mumkin emasligini tasdiqlamoqda, gender tengligi va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida bevosita aloqa mavjud.

Shu o'rinda bir savol tug'uladi,"GENDER" atamasining ma'nosi nima?

"GENDER" atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lib, "jins" ma'nosini bildiradi.

Natijalar: Ayollar va erkaklarning ta'lim olishga doir teng huquqlari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, jismoniy rivojlanish va sport bilan shug'ullanish borasida "Jismoniy tarbiya va sport haqida" gi qonuni (2-modda) bilan belgilangan. Ayollar va erkaklarning teng huquqliligini mamlakatimizning asosiy qonuni- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan, uning 46-moddasida qayd etilganidek, "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar".

Muhokama: Shunday qilib, mustaqillik yillarida respublikada qonunchilik va ijro etuvchi organlar darajasida huquqiy va boshqa sohalarda ayollar va erkaklar tengligiga oid konstitutsiyaviy printsiplarni ta'minlashga qaratilgan ayollar va erkaklarga nisbatan davlat siyosatini amalga oshirish uchun progressiv va ishonchli baza yaratilgan. Alohida sa'y-harakatlar ayollar va erkaklar xulq-atvoriga doir ijtimoiy va madaniy modellarni o'zgartirishga, omma ongida ayollar va erkaklarning jamiyatdagi roliga doir eskicha qarashlarni bartaraf etishga qaratilishi kerak. Bundan tashqari 2015-yilda Pokiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Gender tengligi va ayollarning huquqlarini kengaytirish bo'yicha bo'limi tomonidan hisobot tayyorlandi. Bu hisobot "BMT-ayollar" deb tanilgan.

Hisobot markaziy masalalaridan biri ayollarni ish bilan ta'minlash masalasi edi. Universitetlarni imtiyozli diplom bilan tugatgan yosh qizlar, ayniqsa, tibbiyot va matematika kabi fanlardan yosh yigitlarni tobora ortda qoldirishlariga qaramay, ish topa olmaydilar. Ma'lumotlarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda gender tengligi holati ham ideal darajadan uzoq emas. Masalan, Shvetsiya va Fransiyada ayollar erkaklarnikiga nisbatan maoshlaridagi farq 31% ga kam, Germaniyada 49% ga kamroq, Turkiyada esa 75% ga teng. Hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, Ispaniya, Finlandiya va Fransiya kabi davlatlar boshqaruv lavozimlarida ayollarning ulushi 50% ni tashkil etmoqda. Avstriya, Belgiya va Qo'shma Shtatlar ham hukumat tarkibidagi ayollar soni 2017-yildan beri sezilarli oshgan, ushbu ko'rsatkich 29% dan ko'proqni

qayd etib kelmoda. Shuningdek, Vengriya, Koreya va Portugaliya davlatlarida ayollar ulushi esa 18% ni tashkil qilmoqda. Shuni aytishimiz mumkinki, xalqaro miqyosda parlamentda ayollar salmog'ini oshirish uchun majburiy yoki ixtiyoriy gender kvotalarini belgilash hamda, ayollarga zaxira o'rinlarini ajratish usullaridan keng foydalaniladi.

Gender tenglikni ta'minlashning asosiy tamoyillari

- Qonuniylik;
- Demokratiya;
- Ochiqlik;
- Oshkoralik.

Davlat xizmatidagi rahbarlik lavozimlarini egallash uchun tanlovda xotin-qizlar va erkaklarning teng ravishda ishtirok etishi O'zbekiston qonunchiligi bilan kafolatlangan.

Xulosa: Jamiyat barcha qatlamlarining maqsadli faoliyatini tashkil etish zarur, gender-dezagratsiyalangan axborot bazasini yaratish, barcha hududlar arajasida gender tahlili va monitoringini o'tkazishni talab etadi.

References:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatli to'g'risida"gi qaror (2019).
- 3.BMT ma'lumotlari.
- 4.Ikramov.R. Bekmirzayev.
Yurist nutqi madaniyati.
- 5.BMT va gender tengligi.
- 6.Yuristlar malakasini oshirish markazi.